

MAXSUS MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARGA TASHXIS QO'YISH METODIKALARI VA ULARNI AMALDA QO'LLASHNING SAMARADORLIGI

Soliyev Ilhomjon Sobirovich

FarDU pedagogika fanlari boyicha falsafa doktori (PHD), dotsent

Xolmurodova Nasiba Solijon qizi

Farg'ona davlat universiteti Pedagogika fakulteti

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 27.12.2025

Revised: 28.12.2025

Accepted: 29.12.2025

KALIT SO'ZLAR:

*Maxsus maktabgacha ta'lim,
tashxis metodikalari, psixik
rivojlanish, defektologiya,
kuzatish usuli, pedagogik tashxis,
korreksion ishlar, individual
rivojlanish, nutq buzilishlari, test
diagnostikasi*

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada maxsus maktabgacha yoshdagi bolalarni psixik va aqliy rivojlanish xususiyatlarini aniqlash maqsadida qo'llaniladigan tashxis qo'yish metodikalari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada tashxis natijalariga asoslanib olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlar va ularning samaradorligini oshirish yo'llari yoritilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim muassasalarida maxsus ehtiyojli bolalarning individual rivojlanishini samarali tashkil qilishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim inson hayotidagi ilk ijtimoiylashuv, o'rganish va shaxs sifatida shakllanish bosqichidir. Ayniqsa, maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda individual yondashuv, to'g'ri tashxis qo'yish va mos metodikalar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu jihatdan, maxsus maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanish xususiyatlariga qarab tashxislash va unga mos metodlarni tanlash, ular bilan ishlashda samaradorlikni oshiradi.

Tashxis (diagnostika) – bu bolaning psixik, emotsional va jismoniy rivojlanish holatini aniqlashga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan jarayondir. Maxsus pedagogikada tashxisning

ahamiyati beqiyos bo'lib, u bolaning rivojlanishidagi muammolarni aniqlash va ularga to'g'ri yondashuvni belgilash imkonini beradi.

Bu yoshdagi bolalarni tashxislashda kompleks yondashuv qo'llaniladi. Asosiy metodikalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Kuzatish metodi – bolaning xatti-harakati, nutqi, ijtimoiy munosabatlari kuzatilib, rivojlanish darajasi baholanadi.

Test metodlari – maxsus ishlab chiqilgan psixologik testlar yordamida bola aqliy, emotsional va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari o'lchanadi.

Suhbat va intervyu – bolaning o'z fikrini bayon etish darajasi va tushunchalarini aniqlashda foydali.

Rasmiy baholash kartalari – maxsus bolalar bog'chalari uchun ishlab chiqilgan baholash mezonlari orqali har bir bola bo'yicha aniq ko'rsatkichlar olinadi.

Harakatli faoliyatlarni tahlil qilish – bola noverbal aloqa vositalari (harakat, imo-ishora, mimika) orqali qanday ifodalanayotganini aniqlash.

Amaliyotda qo'llaniladigan diagnostika vositalari

“Rivojlanish pasporti” – bolaning har bir rivojlanish bosqichidagi yutuq va muammolari qayd etiladi.

“Nutq kartasi” – logopedlar tomonidan bolaning nutq rivojlanish darajasi baholanadi.

Sensor rivojlanish testlari – eshitish, ko'rish, teginish orqali bola sezgi faoliyatining darajasi aniqlanadi.

Pedagogik tashxis kartasi – pedagogik faoliyat orqali bolaning mustaqilligi, o'zini tutish madaniyati, bilim olishga bo'lgan munosabati aniqlanadi.

Tashxisdan olingan ma'lumotlar asosida pedagog va psixologlar bola bilan quyidagi yo'nalishlarda ishlaydi:

Nutqni rivojlantirish – logopedik mashqlar, hikoya tuzish, ertak aytish orqali.

Ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish – rolli o'yinlar, guruhli mashg'ulotlar orqali.

Aqliy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash – mantiqiy fikrlash, tasniflash, solishtirish mashqlari orqali.

Harakat faoliyatini rivojlantirish – musiqali ritmik mashqlar, mayda va yirik harakatlar ustida ishlash.

Xulosa. Maxsus maktabgacha ta'limda tashxis – bu nafaqat bolaning muammosini aniqlash, balki uni to'g'ri yo'naltirish, rivojlantirish va jamiyatga moslashtirishning muhim bosqichidir. Maxsus maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni chuqur o'rganish, ularga aniq

tashxis qo'yish — bu bolalarning kelgusidagi ijtimoiylashuvi va ta'limga moslashuvi uchun zamin yaratadi. Diagnostik metodikalar amaliyotda to'g'ri tanlab, tizimli qo'llanilsa, pedagogik faoliyat samaradorligi ortadi. To'g'ri tanlangan metodikalar va ularni samarali qo'llash orqali bolalar rivojida sezilarli yutuqlarga erishish mumkin. Shuningdek, otalalar, pedagoglar va psixologlarning hamkorligi tashxis samaradorligini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva R. Sh. Maxsus pedagogika. – Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2020.
2. Yusupova D. M., Xayitova M. K. Defektologiya asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
3. Gippenreyter Yu. B. Obshchay psixologiya. – Moskva: AST, 2019.
4. Vygotskiy L. S. Psixik rivojlanish nazariyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2018.
5. Nurmatova D. D. Maktabgacha ta'limda psixologik xizmat. – Toshkent, 2022.